

# GLOBAL MOLIYA TIZIMI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403555>

**Akramova Aziza Abduvohidovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

**Madinabonu Abdullayeva Hasanbayevna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchi*

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida zamonaviy elektron tizimlarga talab ortib bormoqda. Global moliya tizimning sifati jihatdan yangi holatiga o'tish mavjud bo'lib, uning asosiy funksiyasini - iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishni amalga oshirish qobiliyati bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, moliya tizimi moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashni tashkil etish hamda ularni real iqtisodiyotga aylantirish bilan zarur darajada kurasha olmaydi hamda uning rivojlanish darajasi yangi iqtisodiy o'sish talablariga javob bermaydi. Bir nechta davlatlar ob'yektiv ravishda moliya tizimini, moliya bozorlarini, moliyaviy vositachilik sektorini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimiga muhtoj hisoblanadi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda "moliyaviy tizim" atamasi eng keng tarqalgan va asosan qonun hujjatlarida, sud qarorlarida, ijtimoiy axborotlarida, davlat rahbarining, hukumati raisining nutqlarida uchratish mumkin. Moliya tizimidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning ko'payishi, afsuski, tizimsiz, bir lahzalik xarakterga ega ekanligini ham ta'kidlash lozim.

Zamonaviy moliya tizimi mamlakatda vujudga kelayotgan muammolarni hal qilishda kritik o'rin egallaydi. Tizim, muammolarni tushunish, ularga ta'sir ko'rsatishning qanday yo'llarini aniqlashda va ularni hal qilish uchun kerakli strategiyalarni shakllantirishda yordam beradi. Tizimni amalga oshirish va muammolarni hal etishda qo'llaniladi. Muammolarni hal qilish uchun ilmiy tadqiqotlar, moliya sohasidagi muammolarni chuqurroq tushunishga va ularni yechish uchun mos keladigan yechimlarni aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar,


muammolarni tahlil qilish, moliya sohasidagi o'zgarishlarni oldini olish va yangi strategiyalarni shakllantirishda qo'llaniladi.

Moliyaviy strategiyalar, muammolarni hal qilish uchun moliya sohasidagi ilmiy va amaliy ishlar asosida shakllanadi. Bu strategiyalar, moliyaviy siyosatning o'zgarishi, moliyaviy institutlarning ishlashini ta'minlash, moliyaviy resurslarni boshqarishning yangi usullarini qo'llash va boshqalar kabi jarayonlarda ishlab chiqiladi.

Moliya tizimi quyidagi printsiplarga to'g'ri kelishi kerak:

- ✧ moliyaviy tizimning barqarorligi,
- ✧ moliyaviy nazorat va davlat boshqaruvining davlat va moliya organlari bilan o'zaro ta'siri va izchilligi printsipti,
- ✧ federalizm printsipti. Bundan tashqari, olimlar ham, qonunchilar ham "moliya tizimi" va "budjet tizimi", "moliya tizimi" va "pul tizimi" atamalarini chalkashtirishga yo'l qo'ymoqda. Aytish mumkinki, soliq va budjet tizimlari moliya tizimining bir qismidir.

Xalqaro moliya - bu xalqaro iqtisodiy aloqalarda foydalanadigan moliyaviy resurslarning yig'indisi. Xalqaro moliya tizimi strukturasi bir qancha bo'g'inlardan tashkil topgan[3].



Xalqaro moliyaviy munosabatlar – bu qaysiki pul oqimlari harakati sodir bo‘ladigan murakkab tizim bo‘lib, ushbu munosabatlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash mumkin[4]:

- Turli mamlakat xo‘jalik subyektlari o‘rtasida munosabatlar;
- Davlatning boshqa mamlakat yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar;
- Davlatning boshqa mamlakatlar hukumati va xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar;
- Davlat va xo‘jalik subyektlarining xalqaro moliya institutlari bo‘yicha o‘zaro munosabatlar.

Xalqaro moliya institutlari moliyasi va xalqaro moliya bozori xalqaro moliyani tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro moliya tashkilotlarining nizomida belgilangan funktsiyalarini bajarilishini ta‘minlash ushbu tashkilotlar doirasida shakllantirigan pul mablag‘lari fondlari orqali amalga oshiriladi. Moliya tizimining asosiy tendensiyalari quyidagilardan iborat:

Xalqaro miqyosida moliya sohasini tahlil qilish imkoniyatini beradi va xalqaro moliya bozori, xalqaro bank faoliyati, xalqaro moliya korporatsiyalari va qimmatli qog‘ozlar portfellini boshqarishning barcha tomonlarini o‘z ichiga oladi;
Jahon darajasida moliyaviy operatsiyalarning o‘zaro bog‘liqlik xoldagi harakatini, (rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida) tushuntirib beradi;
Makro va mikro darajada to‘liq moliyaviy faoliyatni o‘rganish imkoniyatini beradi (mikro darajada asosiy e‘tibor moliya bozorlari va korporatsiyalar, bank operatsiyalari va qimmatli qog‘ozlar portfellini boshqarishga, makro darajada jahondagi moliyaviy faoliyat va moliyaviy bozorlar umumiy xolda o‘rganiladi);
Xalqaro moliyaviy operatsiyalar jarayonlarining uzluksizligi va uni doimiy o‘zgarishini taxmin qiladi.

**1-rasm. Xalqaro moliyaning asosiy tendensiyalari [1]**

Moliya bozorlari juda muhim iqtisodiy funktsiyani bajaradi, ya'ni ular o'z daromadlariga nisbatan kam xarajatlar qiluvchi uy xo'jaligi, firmalar va davlat organlaridagi resurslarni, resurslarga muhtoj bo'lgan (daromadlaridan ortiq xarajatlarga talabi mavjud) iqtisodiy subyektlarga o'tkazadi. [2]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ohirgi yillarda xalqaro moliya tizimi zamonaviy moliyaviy metodlarni ishlab chiqish manbasiga aylanmoqda. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar o'z navbatida xalqaro moliya tizimlariga ta'sir etishiga hamda hududiy moliya bozorlarining integratsiyalashuv imkoniyatini yaratdi. Bu jarayonlar mamlakatlar o'rtasidagi, shu jumladan moliya sohasida rivojlanishning yangi formalarini o'z ichiga olish bilan bir qatorda moliya tizimining rivojlanish tendensiyalarini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Lukyanova, Z. A. *Finansi: ucheb. posobie dlya distantsionnogo obucheniya i samostoyatelnoy raboti studentov* /Z. A. Lukyanova, T. K. Gomanova. – Novosibirsk: SibAGS, 2007.–232 s.
2. *Financial Markets and Institution*\Eighth Edition. Frederic S. Mishkin & Stanley G. Eakins.374p.
3. *Finance* V.V. Kovaleva .-M:TK Velbi Izd- vo Prospekt. 2005, s 511
4. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *European Scholar Journal*, 5(3), 5-8.
5. Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46–54.
6. Jumaniyazov Inomjon To'rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 117–124.
7. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich *Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters*, 2023
8. <http://finansovygid.ru/finansu/18–megdynarodnue–finansu.html>.